

## BARCHA DAVRLAR GO'ZALLIGI

Allanazarov Javohir Anvar o'g'li

Osiyo xalqaro universiteti tarix yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10887506>

**Annontatsiya.** Maqolada qadimgi Afrosiyob shahrining tarixda tutgan o'rni. Barcha davrlarda o'z ahamiyatini yo'qotmay kelayotgan, o'z mahobatligi va go'zalligi bilan dunyoga mashhur bo'lgan qadimgi boqiy shahar

**Kalit so'z:** Afina, Sharqiy Bobil, qoplon, Maroqand, Aleksandir Makedonski, Arxeologik qo'riqxon, Kushonlar, Ark, Buxorxudot, Juyi Arziz, Tolu Borzu, So'g'diyona, Semizkent.

## THE BEAUTY OF ALL TIMES

**Abstract.** In the article, the place of the ancient city of Afrosiyob in history. It is an ancient and eternal city that has not lost its importance in all eras and is famous for its majesty and beauty.

**Key word:** Athens, Eastern Babylon, Kaplan, Marokand, Alexander the Macedonian, Archaeological Reserve, Kushans, Ark, Bukhorkhudot, Juyi Arziz, Tolu Borzu, Sogdiyona, Semizkent.

## КРАСОТА ВСЕХ ВРЕМЕН

**Аннотация.** В статье место древнего города Афросиаб в истории. Это древний и вечный город, не потерявший своего значения во все эпохи и славящийся своим величием и красотой.

**Ключевое слово:** Афины, Восточный Вавилон, Каплан, Мароканд, Александр Македонский, Археологический заповедник, Кушаны, Арк, Бухорхудот, Джуйи Арзиз, Толу Борзу, Согдиена, Семизкент.

## KIRISH

Samarqand dunyoning eng qadimiy shaharlardan biri bo'lib, Rim va Afina bilan tengdoshdir. U 2750 yoshdan oshgan. Shahar har doim haqiqiy sharqona mehmondo'stlikning chinakam namunasi bo'lgani bilan ajralib turgan. Bu yerda bir necha millat vakillari doimo birgalikda yashab kelgan. Samarqandni odatda "Sharqiy Bobil" deb atashadi.

Unda go'yo ulkan oynadagidek yo'l aks etadi. Ko'p avlodlar bosib o'tgan yo'l. Shaharning boy voqealari, yuksalishlar va pasayishlar, qimmatbaho topilmalar va eksponatlar, qadimiy obidalar dastlabki odamlar bu hududda ming yillar oldin yashay boshlaganliklarini tasdiqlashga imkon beradi.

Qadimgi afsonaga ko'ra, Samarqand shahri tashkil etilganida (miloddan avvalgi VIII asrda) Zarafshon tog'laridan qoplon kelib, shahar qurilishini ma'qullagan ekan. O'shandan beri Samarqandda odamlar o'zlarini qoplon bilan bog'lashadi – ular xuddi o'shanday mag'rur, xuddi o'shanday qat'iyatli va xuddi o'shanday saxiydirlar.

Samarqand nomi so'g'd tilidagi Smr'kand so'zidan kelib chiqib, "tosh qal'a" yoki "tosh shahar" degan ma'noni anglatadi. Qadimgi davrlarda Samarqand eng qadimiy So'g'diyona davlatining poytaxti bo'lgan va Afrosiyob deb nomlangan. Qadimgi yunonlar orasida va Rimda shahar Marakanda nomi bilan tanilgan. Aleksandr Makedoniskiy davrida ham Samarqand obodonlashtirilib, ancha rivojlangan shahar bo'lgan.

## Asosiy qism

Afrosiyob – Samarqandning qadimgi xarobasi. Bu nom tarixiy manbalarda qadimgi Samarqandga nisbatan faqat XVII - asrdan boshlab uchraydi. Qadimgi Samarqand so'g'd manbalarida Samarqand deb atalgan. M.avv. IV asrda Samarqand Aleksandir Makedoniskiy qo'shinlari tomonidan istlo etilgach, yunon mualliflari kundaliklarida Maroqanda sifatida eslatiladi. Maroqanda Samarqandning yunoncha tarjimasidir. Movarounnahirda somoniylar hokimiyati tepasiga kelgach, qadimgi Samarqand IX asrdan boshlab Samarqand deb atala boshlandi.

XI-XV asrlarda turkiy tilda bitilgan adabiyotlarda Samarqand Semizkent sifatida uchraydi. XV asrdan fors va turkiy tillardagi manbalarda bir xilda Samarqand nomi ishlatiladigan bo'ldi.

Afrosiyob siyob arig'i bilan chegaralangan. Janub tomondan "eski shahar" deb atalgan Samarqandga qo'shilib ketgan. Shaharning dastlabki tarixi haqida yozma manbalarda malumotlar juda kam uchraydi. Ko'hna shaharda o'tkazilgan arxeologik qazishlar esa bunday malumotlarni ko'proq bermoqda. Samarqand -Smarakansa ning qadimgi markazi Afrosiyob yodgorligidir. Arxeologik tadqiqotlar natijasida Afrosiyobdan mil. avv. VI-IV asrlarga oid qadimgi shahar izlari topilgan. Uning umumiy maydoni 219 gektarni tashkil qilgan. Bu yerdan sopol idishlar, temir va bronzadan ishlangan ko'plab uy-ro 'zg'or buyumlari va qurol yarog'lar topilgan. XX asrning 60-70 yillarida V.A.Shishkin va Ya.G'.G'ulomovlar rahbarligida keng ko'lamlilik arxeologik tadqiqotlar olib borilib, 1966-yilda Afrosiyobni «arxeologik qo'riqxonasi» deb e'lon qildilar. Arxeologik tadqiqotlar natijasida shaharning yoshi, tarixiy topografiyasi, shahar tarkibi, shahar hayotining rivojlanish bosqichlari va saroy qoldiqlari ochildi. Tadqiqotlar natijasida 1970 yilda Samarqandning 2500 yillik yubileyi keng nishonlandi. Mustaqillik yillarida arxeologik va ilmiy tadqiqot ishlarining samaradorligini oshirish maqsadida o'zbek arxeolog olimlar professor M.Isomiddinov, A.Anorboev va tadqiqotchi A.Otaxo'jaevlar fransiyalik arxeologlar Pol Bemar va Franc Grene bilan hamkorlikda ishladilar. Natijada Afrosiyobning eng quyi madaniy qatlamlarini o'rganish jarayonida yer sathidan 10-15 m. chuqurlikda miloddan avvalgi IX-VII asr o'rtalariga oid ashyolar topildi; qo'lda yasalgan rangli naqsh berilgan sopol idishlarning parchalari. 7 metr qalinlikdagi guvaladan tiklangan mudofaa devori qoldiqlari va boshqalar. Topilgan ushbu namunalar Fransiyada radiokarbon tadqiqot usulida o'rganildi va ular miloddan avvalgi VIII asr. ya'ni Samarqandning 2750 yoshga ega ekanligi isbotlandi. Afrosiyobdan topilgan arxeologik materiallar Samarqand miloddan avvalgi VIII-V asrlarda Sug'diyonaning markaziy shahri sifatida vujudga kelganligini ko'rsatadi. Mil.avv 329-yilda shahar Aleksandir Makedoniskiy qo'shinlari tomonidan vayron etilgan. Kushonlar saltanati davrida shahar hayotida yuksalishlar kuzatilgan.

Mil.avv. III asrda shahar qishloq mudofaa devori bilan o'rab olingan. U davrlarning qalin madaniy qatlami Afrosiyobning shimolida, uning arki aholisi joylashgan hududda madaniy qatlamlar yaxshi saqlanib qolgan. Arxeologik materiallar va yozma manbalarda takidlanishcha bu zamonda Samarqand orqali Buyuk ipak yo'li o'tgan ichki va tashqi savdo, hunarmandchilik rivoj topgan. Ilk o'rta asrlarda Samarqand So'g'diyonaning bosh shahri sifatida nufuzli mavqega ega bo'lib, shahar ijtimoiy va iqtisodiy hayotida tub o'zgarishlar ro'y berdi.

Badavlat dehqon xo'jaliklari kuchaydi, xuddi shu kezlarda ularning qasrlari joylashgan Afrosiyobning shimoliy qismi mudofaa devori bilan o'rab olingan. Bu holat Movarounnahr va unga qo'shni viloyatlarda ham yuz berdi. Bu davirda Samarqand hukumdori "Ixshid" Buxoro hukumdorlari esa "Buxorxudot" deb atalgan. 1220-yilda Chingizxon qo'shinlari "Juyi arziz"

to'g'onini buzib, shaharni suvsiz qoldirdi. Shahar mudofachilari tengsiz jangda taslim bo'ldilar. Bosqinchilar shaharning devor va darvozasini vayron qilib saroy, masjid va madrasalarga, aholi xonadonlariga o't qo'ydilar. Aholining katta qismi jangda qirildi, hunarmandlar Mo'g'listonga haydab ketildi. Shaharning so'ngi mudofachilari Jome masjidiga yashirib, qarshlikni davom ettirdilar.

Ularning olovda yongan tanalari jang kiymida bizgacha yetib kelib, arxeologik qazish vaqtida topildi. Afrosiyobda suvsiz qolgan aholi Siyobdan charxpalakda suv chiqarib, kun ko'rgan, so'ng aholi bora-bora Afrosiyobni butunlay tashlab ketgan. Kimsasiz xarobaga aylangan qadimgi Samarqand avvallari Histori ko'hna "qal'ai Histor" deb atalgan. Afrosiyobda ko'pgina qazishma ishlari olib borilgan shulardan biri 1948 yilda arxeolog A.I.Terenojkin Afrosiyobning ilk o'rta asrlarga oid qatlamlarini tekshirdi. Qazish ishlari natijasida VI asrga mansub Tolu Barzu yodgorligi. VIII asrga oid sopol idishlar, sosoniy tangalari topildi. 1958 yildan buyon Afrosiyobni o'rganilish ishlari davom etmoqda va hozirgacha turli davrlarga oid bir qancha yodgorliklar topildi.

Tadqiqotlar natijada IV-V asrlarda Samarqandning tushkunlikka uchragan davri ekanligi aniqlandi. Uning rivojlanishi yangitdan VI asrdan boshlangan. Bu davrda ark yangi devor bilan o'rab olingan va uzunligi 1,5 km bo'lgan 4-devor qurilgan. Shahar janubga qarab kengaytirilib, uzunligi 3 km bo'lgan ichki devor qurilgan. VII asrlarda Afrosiyobda maxsus saroy devori quriladi va shaharning to'rtinchi tashqi devori butunlay qayta qurilgan. Saroy devorining ichida yirik inshootlar qurilgan. Shahar aholisi kasbiga ko'ra maxallalarga bo'ling.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, ushbu maqolada Afrosiyobning qadimdan shakillanishidan xozirgi davrgacha bo'lgan voqealarni ko'rib o'tdik. Afrosiyob aslida qadimgi So'g'diyonaning markaziy shahri sifatida shakillana boshlaydi, keyinchalik ko'plab bosqinlar davrida vayrona xolga kelib qoladi. Afrosiyobni qayta tiklash ishlari barcha davrlarda amalga oshirilgan Aleksandr Makedoniskiy bosqini davrida shaxar mudofa devorlar vayronaga aylantirladi. Lekin ko'p o'tmay shaharda qayta tiklash ishlarini olib boradi. Aleksandr Makedoniskiy shaxarga kirib kelgan chog'da shunday deydi "Men Samarqand haqida eshitganlarimning hammasi albatta haqiqat! Faqat bitta narsa: u men tasavvur qilganimdan ham chiroyliroq bo'lib chiqdi." Biz ham ushbu fikrlarning to'g'ri ekanligiga guvoh bo'lyabmiz.

## REFERENCES

1. I. Mo'minov – Samarqand tarixi birinchi jild – Toshkent 1971. 8-11 betlar
2. Utayeva Feruza Xolmamatova – O'rta Osiyoning Qadimgi va O'rta asrlar urbanizatsiyasi Buxoro -2021 . 67-69 betlar .
3. A. Sagdullayev – O'zbekiston tarixi Toshkent – 2003yil 156 –bet.
4. O'sha adabiyot-487-bet.
5. Xudoyberdi Doniyorov-„Sharq yulduzi" jurnali 1991yil,7-son
6. Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar.
7. Ashurovich, B. A. . (2024). Results of the Archaeological Research Works Carried Out in Bactria. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(3), 113–119. Retrieved from <https://www.inovatus.es/index.php/ejine/article/view/2686>

8. Bobohusenov, A. (2024). HISTORICAL GEOGRAPHY OF BUKHARA OASIS. *Modern Science and Research*, 3(2), 634–640. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/29429>
9. Akmal, B. (2024). THE GREAT WALL OF THE EARLY MIDDLE AGES - KANPIRAK WALL. *Modern Science and Research*, 3(1), 694–698. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/28381>
10. Bobohusenov Akmal. (2023). BUXORO VOHSINING ANTIK DAVRI SHISHA BUYUMLARI. *TADQIQOTLAR*, 25(2), 208–211. Retrieved from <http://tadqiqotlar.uz/index.php/new/article/view/307>
11. Bobohusenov Akmal Ashurovich. (2023). THE MATERIAL CULTURE OF THE TOMBS OF THE ANCIENT AND EARLY MEDIEVAL PERIOD. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(11), 24–29. <https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue11-06>
12. Bobohusenov Akmal. (2023). ANTIK VA ILK O'RTA ASRLAR DAVRI MOZOR-QO'RG'ONLARI MODDIY MADANIYATI .*ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 35(3), 65–70. Retrieved from <https://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/10037>
13. Bobohusenov Akmal. (2023). ANTIK VA ILK O'RTA ASRLAR DAVRI MOZOR-QO'RG'ONLARI MODDIY MADANIYATI .*ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 35(3), 65–70. Retrieved from <https://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/10037>
14. Tursunova, M., & Bobohusenov, A. (2023). QADIMGI VARAXSHA DEVORIY GANCH VA LOY BEZAKLARI. *SCHOLAR*, 1(28), 303–308. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10026873>
15. Bobohusenov Akmal. (2023). BUXORO VOHSINING ANTIK DAVRI SHISHA BUYUMLARI. *TADQIQOTLAR*, 25(2), 208–211. Retrieved from <http://tadqiqotlar.uz/index.php/new/article/view/307>
16. Bobohusenov Akmal Ashurovich. (2023). VARAKHSHA MURAL GANCH AND CLAY PAINTINGS. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(12), 48–53. <https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue12-09>
17. Bobohusenov Akmal, & Naimov Ismat. (2023). BAQTRIYANING BRONZA DAVRI ARXEOLOGIYA YODGORLIKLARINING JOYLASHUVI VA MODDIY MADANIYATI. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(8), 73–80. Retrieved from <https://humoscience.com/index.php/itse/article/view/557>
18. Bobohusenov, A. (2023). BUXORO VOHASINING ANTIK DAVRI YODGORLIKLARI. *SCHOLAR*, 1(28), 298–302. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/openscholar/article/view/5055>
19. Bobohusenov Akmal. (2023). BUXORO VOHASI QOYATOSH SURATLARINING DAVRIY TASNIFI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 29(1), 142–146. Retrieved from <https://newjournal.org/index.php/01/article/view/8667>